

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР  
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ  
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН  
АКАДЕМИЯСИ  
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

**2022-5/4**

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна  
Издается с 2006 года**

**Хива-2022**

## МУНДАРИЖА

### БИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

<b>Davronqulova F.A.</b> Manzarali o'simliklarning kelib chiqishi va shakllanishi .....	5
<b>Gulboyev D.T., Olimjonova S.G'.</b> Achchiq bodom ( <i>Amygdalus communis</i> ) ni in vitro sharoitida to'qima-hujayralarini rivojlanish imkoniyatlari .....	8

### ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИК ФАНЛАРИ

<b>Махмудов И.Э., Мирзаев А.А., Саримсақов М.М.</b> Томчилатиб суғориш технологияси самарадорлигининг экспериментал тадқиқотлари .....	12
<b>Норов Б.Н., Қўчқаров О.Э., Амантурдиев Б.Б.</b> Дурагайлашга жалб қилинган нав ва тизмаларда айрим қимматли хўжалик белгилари ҳамда тола сифатини шаклланиши .....	16
<b>Эргашева Х.Б., Юлдашева Ш.Ж., Элмуродова А.С.</b> Получение пшеничного зародыша и качественная характеристика продукта .....	20

### ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<b>Abdullaeva N.Sh.</b> Transport korxonalarida kadrlar siyosatining mazmuni va mohiyati .....	24
<b>Kholkhodjaeva D.Sh.</b> Concepts of logistics .....	26
<b>Kudratov B.G.</b> Korxonada personalni boshqarishning ijtimoiy samaradorligini oshirish muamolari .....	29
<b>Nematova Sh.E., Salimjonova Z.S.</b> Raqamli iqtisodiyot va ta'lim texnologiyalari .....	32
<b>Raimova M., Djumanova A.B.</b> Korxonada faoliyatining kritik nuqtasini tahlili .....	36
<b>Курбанова Д.А., Курбонова З.А.</b> Глобал темирбетон ишлаб чиқариш саноатини тежамкорлик асосида ташкил этишнинг назарий асослари .....	39
<b>Қўчқоров Ф.Ф., Сатторов У., Йўлдошев М.</b> Инсон ресурсларини бошқаришнинг замонавий усуллари .....	41
<b>Махмудова Н.Б.</b> Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг хизмат кўрсатиш соҳасидаги аҳамияти ва назарий асослари .....	44
<b>Мухитдинова К.А.</b> Саноат корхоналарининг инвестицион жозибadorлигини таҳлил қилишда услубий ёндашув: мажмуавий таҳлил .....	47
<b>Паязов М.М.</b> Хизматлар бозорининг ижтимоий-иқтисодий хусусиятлари .....	49
<b>Табаев А.З.</b> Қишлоқ хўжалигида агрокимё хизмати кўрсатишнинг ташкилий-иқтисодий механизмларини такомиллаштириш .....	53
<b>Ходжаева Н.А.</b> Сценарии развития использования целевых показателей отраслевых программ Республики Узбекистан, при экологически ориентированной экономике .....	58
<b>Ходжибоева И.В.</b> Корхонанинг ривожланишида инвестицион жараёнлар ва инвестицион салоҳиятнинг аҳамияти .....	61
<b>Якубова М.А.</b> Цифровизация энергетики- фактор устойчивого развития .....	64

### ТАРИХ ФАНЛАРИ

<b>Сафарова З.С.</b> Ўзбек кино санъатининг иккинчи жаҳон уруши йилларидаги фаолияти .....	67
<b>Ахмедов С.</b> Ўзбекистоннинг Осиё ва Африка давлатлар билан маданий алоқаларида Тошкент конференциясининг ўрни .....	69
<b>Равшанов А.Х.</b> Ўзбекистонда мустақиллик йилларида ўрта махсус, касб-хунар тизимидаги ислохотлар тарихидан .....	72
<b>Махматқулов Ж.И.</b> Мустақиллик йилларида гиёҳванд моддаларнинг тарқалишини олдини олиш борасида амалга оширилган ишлар .....	75
<b>Хаджимуратов А.А.</b> Социализм давридаги тадбиркорлик ҳақида .....	78
<b>Abduvohidov D.</b> “Katalas” dan “Payariq” qacha .....	81
<b>Бободустов Б.М.</b> Ўрта Зарафшон воҳасининг асосий сув манбалари: тарихий таҳлил .....	84

### ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

<b>Anarboev O.R.</b> Publisistik uslub — hayot ko'zgusi sifatida .....	88
<b>Atamurodova D.T.</b> Frazeologizmlarning pragmatik xususiyati .....	90
<b>Atavayeva Z.B.</b> Adabiyotshunoslikda “demon” motivining qo'llanilish xususiyatlari .....	92
<b>Azimjonova Sh.</b> Tarixiy jarayonning adabiy hayotga ta'siri munaqqid nigohida .....	95
<b>Azimov A.X.</b> Frazeologiya va idiomalar .....	97
<b>Boqiyeva M.</b> The modern grammatic category of the verb .....	100
<b>Buxarova M.X.</b> Tilning asosiy ijtimoiy funksiyalarini amalga oshirishning muammolari .....	102
<b>Jumanova Sh.R.</b> Cho'lponning “Kecha va kunduz” asarining ingliz tili tarjimasida qiyosiy-lingvistik tahlil .....	105
<b>Keldiyorova G.S.</b> Erkin Vohidov asarlari til xususiyatlari va badiiy matnning o'ziga hos xususiyatlari .....	107
<b>Makhmatkulova Sh.</b> The word “fidoiy” in the modern uzbek language: the enlargement of semantic structure .....	110
<b>Naimova A.M.</b> Tarixiy inversiyaning namoyon bo'lish vositalari .....	112
<b>Narzullayeva F.O.</b> Bosh so'zi somatizmlarining ingliz va o'zbek tillarida qo'llanishi .....	115
<b>Norbaboyeva M.T.</b> Tohir Malik ijodida “Yetim bola” obrazi talqini .....	117

<b>Nuritdinova R.S.</b> Onomastik konversiya - apellyativ leksikaning antroponimlarga o'tish usuli .....	120
<b>Rasulkulova K.</b> Integrating speaking skills by listening .....	123
<b>Rasulova M.A.</b> Sociolinguistic aspect of the normativity of the modern English language .....	125
<b>Ro'ziyeva J.E.</b> Nemis tilida modallikni ifodalovchi leksik vositalar .....	127
<b>Ruziyeva N.X.</b> Ingliz tilida salbiy xushmuomalalik strategiyalari .....	129
<b>Shirova M., Rakhimova Yu.</b> The problem of bilinguality in Germany .....	132
<b>To'yboyeva Sh.R.</b> O'zbek va fransuz sistem tilshunosligida sodda gap qurilishi talqini .....	134
<b>Umarova M.U.</b> Phraseology of the English language .....	137
<b>Yuldasheva L.U.</b> Milliy-badiiy asarlar tarjimasida milliy xususiyatlarining aks etishi .....	139
<b>Yusupova Z.K.</b> Methodology for monitoring educational activities in distance learning of a foreign language .....	142
<b>Zayniyeva H.Sh., Qadirova R.J.</b> Badiiy tarjimalar pragmatikasining o'ziga xos xususiyatlari talqini .....	145
<b>Камалов У.А.</b> Лексические средства выражения оппозитивной модальности в русском и узбекском языках .....	147
<b>Каримова Ж.Ш.</b> Фразео - синонимический ряд и проблема доминанты .....	149
<b>Очилов У.С.</b> Абдулла Қодирийнинг “Обид Кетмон” қиссаси - коллективлаштиришни ўзгача талқин қилган асар .....	152
<b>Рахимова С.Ж.</b> Ибораларда кўп маънолилик шакллари .....	155
<b>Садуллаев Ф.Б.</b> Равишнинг бир даража кўрсаткичи хусусида .....	157
<b>Турдалиева Д.С.</b> Паремиялар нутқий ҳаракатлар сифатида .....	159
<b>Усмонова З.Х.</b> Стивен Кингнинг “Ўлик минтақа”(“Dead zone”) асарида «the laughing tiger» образ талқини .....	161
<b>Хусанова М.А.</b> Поэтик асарда риторик сўроқ гапларнинг экспрессив имконияти .....	165
<b>Чориева М.М.</b> Чет тилни ўрганиш жараёнида маданиятлараро алоқаларнинг ўрни .....	166
<b>ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ</b>	
<b>Kasimova M.B.</b> Nofilologik oliy o'quv yurti rus tili darslari jarayonida talabalarning faollik darajasini oshirishni takomillashtirish .....	169
<b>Nurutdinova M.S.</b> Oliy o'quv muassasalari talabalariga o'zbek tili sohada qo'llanilishi fanining ahamiyati .....	171
<b>Burxanova G.M.</b> Milliy guruhlarda rus tilini o'qitishda talabalarning nutq qoliatlarini takomillashirish .....	173
<b>Alibekova R.X.</b> Rus tili darslarida ta'lim texnologiyalaridan foydalanishining shakllanishini takomillashtirish .....	175
<b>Egamnazarova Z., Ne'matova N.M.</b> Animatsion yondashuv asosida talabalarga rus tili o'qitishning metodikasi va texnologiyasi .....	178
<b>Mamedova N.Z.</b> Nofilologik oliy o'quv yurtlarida rus tilini mutaxassislik sohalari bo'yicha o'qitishning muamolari .....	180
<b>Rizaeva K.</b> Modern technology in the teaching foreign language .....	182
<b>Nasretdinova F.N.</b> Innovative technologies of professional training .....	184
<b>Djumaniyazova E.Q.</b> The effectiveness of innovative educational technologies in the study of foreign languages .....	187
<b>Umarova F.N.</b> Features of the formation and development of communicative competence in the study of a foreign language among students of a technical university .....	189
<b>Berdiyorova M.X., Mavlonova M.U.</b> Developing student's creative activity based on an integrative approach .....	191
<b>Алленова И.В., Ташева У.Т., Цигулева М.В., Данилина Ю.С.</b> Возможности применения технологии веб-квеста в преподавании русского языка .....	194
<b>Базарова Н.Ш.</b> Методы применения инновационных образовательных технологий на уроках русского языка .....	196

Modallik ma'nolarining morfologik yo'l bilan ifodalanishiga fe'llardagi mayl kategoriyasi kiradi. Modallik ma'nolarining sintaktik yo'l bilan ifodalanishiga gapning mazmuniga ko'ra turlari (darak, so'roq, undov va buyruq gaplar), shu turlarni hosil qiluvchi va bir-biridan farqlab beruvchi vositalardan bo'lgan intonatsiya kiradi. Modallik ma'nolarining leksik yo'l bilan ifodalanishi maxsus modal so'zlar va boshqa so'z turkumlaridagi omonimik xarakterga ega bo'lib qolgan ayrim so'zlar kiradi.

Modal so'zlar mustaqil so'z turkumlariga ham, yordamchi so'z turkumlariga ham, undov so'zlar jumlasiga ham kirmaydi. Modal so'zlar asos e'tibori bilan tilning keyingi taraqqiyotida mustaqil so'z turkumlaridan o'sib chiqib, maxsus bir so'z gruppasini tashkil etadi. Modal so'zlar leksik ma'nosi, morfologik tomondan turlanmasligi, tuslanmasligi, sintaktik jihatdan gap bo'lagi bo'la olmasligi bilan mustaqil so'zlardan farq qiladi.

Demak, modal so'zlar so'zlovchining voqelikka bo'lgan munosabatini ifodalash uchun xizmat kiladi. O'zbek tili tilshunosligida ham ular semantik jihatdan guruhlariga ajratiladi.

Ya. Pinxasov modal so'zlarni, ularning anglatgan ma'nolariga qarab asosan turt turga ajratadi.

1) fikrning aniqligini bildiruvchi modal so'zlar:

2) fikrning noaniqligini bildiruvchi modal so'zlar:

3) fikrning birovga qarashlilikini bildiruvchi modal so'zlar:

4) fikrning bir-biriga bog'liq ekanini bildiruvchi modal so'zlar:

«Hozirgi zamon o'zbek tili» (1957 yil nashri) kitobi uchun yozilgan «modal so'zlar» maqolasining muallifi Shavkat Rahmatullaev esa, modal so'zlarni ma'nosiga ko'ra ikki turga ajratadi.

• fikrning aniqligini ifodalash uchun xizmat qiluvchi modal so'zlar

• fikrning noaniqligini ifodalash uchun xizmat qiluvchi modal so'zlar

Akademik V.Vinogradov o'zining «Russkiy yazyk» (1947 yil nashri) kitobida modal so'zlarning ma'no jihatdan 12 turga ajratilganligini ko'rsatadi. Keyinchalik, 1950 yilda nashr etilgan «O kategorii modalnosti i modalnyx slova v russkom yazyke» nomli maqolasida modal so'zlarning asosiy to'rt turi borligi va to'rtinchi turning 6 ko'rinishga ega ekanligini ko'rsatib o'tadi.

Prof. Ye.M Galkina – Fedoruk «Sovremenny russkiy yazyk» darsligi uchun yozgan maqolalarida modal so'zlarni ma'nolariga ko'ra ikki turga ajratadi;

1. fikrning aniqligini ifodalash uchun xizmat qiluvchi modal so'zlar,

2. fikrning noaniqligini ifodalash uchun xizmat qiluvchi modal so'zlar,

**Xulosa.** Modal so'zlarni ma'no, ya'ni semantik jihatdan turlarga ajratishda deyarli bir xillik yo'q. Ba'zi olimlar modal so'zlarni ma'no jihatdan to'rtga bo'lsalar, ayrim tilshunoslar ikkiga bo'lib ko'rsatadilar. Bunday hollar tilda modallik tushunchasining o'sib, boyib borayotganini, modallik kategoriyasi doirasining kengayotganligini ko'rsatadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Lafasov U. "Dialogik nutqda subjektiv modallikning ifodalanishi". Nomzodlik dissertatsiyasi. Toshkent. 1996

2. Walter Jung. Grammatik der deutschen Sprache. Leipzig. 1998

3. Gerhard Helbig. Deutsche Grammatik- Grundfragen und Abriss. Muenchen. 1994

UO'T 81-11

### INGLIZ TILIDA SALBIY XUSHMUOMALALIK STRATEGIYALARI

*N.X. Ruziyeva, o'qituvchi, Buxoro davlat universitet, Buxoro*

**Annotatsiya.** Maqolada xushmuomalalik kategoriyaning o'ziga xos xususiyatlari va strategiyalarini faollashtiruvchi lisoniy vositalar tuzilishi jihatidan o'zaro farqi o'rganilgan. Hozirgi zamon tilshunoslarining mazkur muammoga doir qarash va ta'limotlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** sotsioptagmatika, hurmat tamoyili, ijtimoiy status, «salbiy» va «ijobiy» obrazlar, madaniy status, salbiy hurmat kategoriyasi, muloqot akti, obrazni saqlash qadrlash

**Аннотация.** В статье исследуются особенности категории вежливости и различие структуры лингвистических средств активизирующие стратегии вежливости. Приводится анализ взглядов и учений современных лингвистов касательно данной проблемы.

**Ключевые слова:** социопрагматика, принцип вежливости, социальный статус, «негативный» и «положительный» образ, статус, стратегия негативной вежливости, коммуникативный акт, акт спасения образа

**Abstract.** The article investigates the features of the category of the politeness and the difference of the structure of the linguistic means activating the strategies of politeness. The analysis of views and doctrines of modern linguists concerning this problem has been provided.

**Key words:** sociopragmatics, politeness principle, social status, negative face and positive face, cultural status, negative politeness strategy, speech act, face saving act

**Kirish.** Bugungi kunda mamlakatimizni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyasi, fan va texnika yutuqlaridan keng foydalanishga asoslanadi. Shu sababli mustaqillikning dastlabki yillaridayoq respublikamizda fan va ta'lim sohasidagi islohotlarga, yetuk kadrlar tayyorlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Asrlar davomida shakllangan ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarimizga tayangan, bugungi kunda yangi istiqbol mafkurasi bilan oziqlantirilayotgan, shu bilan birga, bizni umumbashariy ulug' ma'naviyat sari yetaklayotgan milliy ongimiz, shuurimiz va dunyoqarashimiz o'zbek nutqi madaniyatini, ona tilimizning amaliy jihatlarini zamon talablariga mos holda o'rganish barchamiz uchun zarurdir.

**Asosiy qism.** Ma'lumki, til va nutq birliklarining har qanday ko'rinishi funksional qo'llanishiga ko'ra o'z o'rniga ega bo'ladi. Agar ana shu birliklar, nutq sub'ektining yoshiga ko'ra, qo'llanish o'rni hamda uslubiy chetga chiqishiga ko'ra o'zgarsa, bu jarayonda, albatta, pragmatik tahlilga ehtiyoj ortadi. O'zbek nutqiy odati tadqiqotchisi Sh.Iskandarova uning vazifa doirasini belgilab, suhbatdoshlar o'rtasida aloqa o'rnatish, ularning bir – birlariga iltifot ko'rsatishga harakat qilishi, suhbatni boshqarib borish, murojaat qilish, xitob, ta'sir etish singari omillarni qayd qiladi.

Har bir millatning milliy mentalitetiga mos ravishda shu xalqning o'zaro muloqot qilishi va munosabatga kirishi uchun qo'llanadigan milliy muomala odobi, nutqiy etiket yuzaga keladi. Barchaga ma'lumki, etiket – bu insonlarning o'zaro munosabatiga taalluqli ommaviy tarzda qabul qilingan va rioya qilinishi talab qilinadigan axloqiy normalardir. Shularga asoslangan holda aytish mumkinki, nutq etiketi muomala odobining rasmiylashgan shakli bo'lib, u har bir xalqning urf-odati, xulq-atvori bilan bevosita bog'liq odob qoidalari hisoblanadi. Nutqiy etiket haqida Turdiyeva H.K. ilmiy izlanishlarida quyidagicha fikr yuritadi “qay'iy qoida yoki senzura darajasigacha ko'tarilgan millatlarda u “rasmiylik va ritual xarakterni”ni ifodalasa, rus xalqida “samimiylik, to'g'ridan-to'g'rilik, to'g'riso'zlik, munosabatning chun yurakdan chiqishi” ko'proq qadrlanadi. Ruslarda “вежливость – сердечность” (muloyimlik/nutqiy etiket–chin qalbdan) iborasi ham bejiz qo'llanilmaydi [4:22].

Tilshunoslikda hurmat tamoyilining quyidagi qoidalari ko'rsatib o'tiladi:

**1. Xushmuomalalilik, nazokat, odob qoidasi** (suhbatdosh urinishlari «sarf»ni kamaytir; uning foydasini ko'paytirishga harakat qil);

**2. Himmat, olijanoblik qoidasi** (o'z foydangni kamroq ko'zla, barcha «sarf»ni o'z zimmangga ol);

**3. Ma'qullash, tahsin qoidasi** (o'zgalarni yomonlama, g'iybat qilma, koyima);

**4. Kamtarlik, kamsuqumlik, oddiylik qoidasi** (o'z-o'zingni maqtashni keskin kamaytir);

**5. Rizolik, murosasozlik qoidasi** (tortishuvlardan qoch, murosaga urin);

**6. Xush ko'rish, mayl, yoqtirish qoidasi** (xayrihox, oqko'ngil bo'l).

Xushmuomalalik kommunikativ ongning bir toifasidir va milliy mentalitetning aksi hisoblanadi. Bu odamlarning kommunikativ xatti-harakatlarini tartibga soluvchi asosiy tizimdir. Shaxsiyat muloyimlikni nizodan qochish uchun verbal va noverbal xatti-harakatlar shakli sifatida belgilaydi

va uyg'un shaxslararo munosabatlarni qurishga qaratilgan [1: 79]. P. Braun va S. Levinsonning lingvistik xushmuomalalik nazariyasiga ko'ra, xushmuomalalik ijobiy va salbiy shakllarini (ijobiy va salbiy siyosat) ajratish odatiy holdir.

Ushbu maqolada so'zlashuv muloqotida ishtirok etayotganlar o'rtasidagi munosabatlar masofaga asoslangan va so'zlovchilarning o'z-o'zini cheklashlari bilan bog'liq bo'lgan salbiy xushmuomalalik haqida ko'proq ma'lumot keltirib o'tilgan.

Salbiy xushmuomalalik rasmiylikning ifodasi sifatida tavsiflangan strategiyalarga asoslanadi va suhbatdoshlar o'rtasidagi masofani cheklash va unga rioya qilishni o'z ichiga oladi [2: 108].

Quyidagi strategiyalar mavjud:

Odatiy-bilvosita jumlar, uyatchanlik va bilvosita munosabat; muloyim pessimizm; depersonalizatsiya va masofa, shuningdek, kechirim.

Ushbu strategiyalarni batafsil ko'rib chiqing.

1. Odatiy-bilvosita jumlar. Ingliz muloqotida so'roq gaplarni *can/could, will/would* modal fe'llari bilan ifodalash an'anaviy usul hisoblanadi. Rasmiy muloqotda savol talaridan talarini emas, balki so'zlovchining adresatdan kerakli ma'lumotni olishi uchun yo'naltirilgan foydalanish. Misol uchun:

1)'Could you tell me the time that is suitable to you?'

2)'Can you show me where the neatest cinema is?'

3)-'Would you like anything?'

-'Will you bring me some tea?' she asked.

-‘Certainly’

4)Would you be so generous as to follow me, please?”

So‘roq gaplarni ifodalashning yana bir bilvosita usuli, *I wonder* bilan bevosita savolda kuzatiladi. Bu holda diqqat adresatdan so‘zlovchiga qaratiladi:

‘I wonder whether they can help us or not, Jill’

2. Uyatchanlik va bilvosita munosabat

Well, I was just wondering...maybe...it was something to do with...you know...her crowd.

‘I’m only saying, why not wait for a while before you make up your mind?’”

Misollarda, "just" va "only" **diskursiv markerlar** so‘zlovchi fikrining ahamiyatini pasaytiradi. Bu muloqot markerlari so‘zlovchi fikrining asl qiymatini minimallashtiradi, chalg‘itishning bir usuli sifatida qo‘llaniladi, tinglovchilarning diqqat-e‘tiborini kamaytiradi va tanqidni yumshatadi.

3. Salbiy xushmuomalalik strategiyasi sifatida **muloyim pessimizmi** keltirib o‘tish mumkin. Bunda asosiy maqsad suhbatdoshning shaxsiyatini hurmat qilishga qaratilib, muloqot ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabat chegaralariga rioya qilish va adresatga ta‘sirini kamaytiradi. Ushbu strategiyani amalga oshirish uchun turli xil usullar qo‘llaniladi.

Is there any chance, If I may, Perhaps you would.

Masalan:

1)-‘Do you wish the book there?’

’ – ‘If you please’.

2)- There was a click, then the operator said, ‘Did you get the number, caller?’

Why? If I may ask without offence’.

Yuqoridagi holatlarni tahlil qilish natijasida shu ayon bo‘ladiki, so‘zlovchining shubhasi qanchalik katta bo‘lsa, muloqot ishtirokchilarining jumllarini ifodalashda xushmuomalalik darajasi shunchalik baland bo‘ladi.

1) Hamid, perhaps you would be kind enough to help me in my cleaning process?

4. Depersonalizatsiya va masofa saqlash, ayniqsa rasmiy muloqotda o‘z ifodasini topadi (ham og‘zaki ham yozma uslubda). Shuningdek, ommaviy axborot vositalarida "I" o‘rnida " We " ning qo‘llanilishida shaxsiy yondashuvlik va yanada kamtarlik, kamsuqumlik ottenkasini aks ettiradi. Boshqacha qilib aytganda, ommaviylik ohangida ifodalanuvchi bu strategiya, muloqot ishtirokchilarini so‘zlashuv jarayoniga taalluqlilik va hamohanglik holatini yuzaga keltiradi [5, 6]. Misol uchun:

1)We regret to be obliged to announce that, owing to unexpected demands on us, our firm has been obliged to suspend payment. So we are sorry that we must restrict admittance to handicapped persons able to walk.

5. Ingliz muloqotida kechirim xushmuomalalikning eng muhim komponenti hisoblanadi. Quyidagi misollarda uzr so‘rash suhbatdoshga e‘tibor berish, mustaqillik, aralashmaslik va shaxsiy daxlsizlik huquqini e‘tirof etishni ifodalaydi. Misol uchun:

1)‘I’m sorry to bother you over there, I’m sure you’re too busy, but I have something to talk to you, so please call me back as soon as possible.’

2)‘I’m too sorry to interrupt you, but it’s urgent...’

**Xulosa.** Shunday qilib, salbiy xushmuomalalik adresatning xohishini hisobga oladi. Har qanday sharoitda ham muloqot jarayonida adresatning obro‘yi va istagi mazkur strategiya ifoda maqsadi hisoblanadi hamda so‘zlashuv jarayonida muloqot ishtirokchilarning o‘zaro hurmat bilan munosabatda bo‘lishini ta‘minlaydi. Salbiy xushmuomalalik strategiyasi turli situativ vaziyatlarda lisoniy ifodalarning qo‘llanishining o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bu strategiyani qo‘llashda uzr so‘rash iboralarini qo‘llagan holda ehtirom ko‘rsatish bosh tamoyil sifatida qaraladi. Bunda so‘zlovchining bosim ostida qolmasligi, o‘zgalarning hayotiga aralashmaslik, adresatning ham bu jarayonga aralashmasligi, munosabatlarda erkinlik va hamohanglik asosiy omil hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Авакова М.Л. Дискурсивная единица just и негативная вежливость // Университетские чтения. Пятигорск: ПГЛУ, 2007. С. 107-113.
2. Arundale, R. B. (2010). Constituting face in conversation: Face, facework, and interactional achievement. *Journal of Pragmatics*, 42, 2078-2015.
3. Касьмова, Н. Ф. (2011). Асимметрия при переводе интеррогативов с вопросительным словом what (на материале английского, русского и узбекского языков). *Вестник Челябинского государственного университета*, (11), 70-73.
4. Турдиева Х.К. Нуткий этикет бирликларининг лингвопрагматик тадқиқи. Диссертация. – Тошкент, 2020.
5. Ruziyeva N. (2020) Face concept in the category of politeness. *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 1(4), 15-20.

UDC 808.3

**THE PROBLEM OF BILINGUALITY IN GERMANY***M. Shirova, Lectur, Karshi State University, Karshi*  
*Yu. Rakhimova, Lectur, Karshi State University, Karshi*

**Annotatsiya.** So'nggi paytlarda ikki tilli odamlar soni ko'paydi. Bu muammo ham MDH mamlakatlariga, ham Germaniyaga tegishli. Muhojirlarning nutqi ko'plab olimlarning e'tiborini tortadi. Maqolada nemis tadqiqotchilari Ella Handke va Renata Belenchikovaning ushbu muammo bo'yicha fikrlari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** ikki tillilik, migrant, ikki tilning aloqasi, iboralar.

**Аннотация.** За последнее время количество людей – билингвов возросло. Данная проблема касается, как стран СНГ, так и Германии. Речь иноязычных мигрантов привлекает внимание огромного количества ученых. В статье изложено мнение немецких исследователей Эллы Хандке и Ренаты Беленчиковой данной проблемы.

**Ключевые слова:** билингвизм, мигрант, контакт двух языков, калька.

**Abstract.** Recently, the number of bilingual people has increased. This problem concerns both the CIS countries and Germany. The speech of foreign-speaking migrants attracts the attention of a huge number of scientists. The article presents the opinion of the German researchers Ella Handke and Renata Belenchikova on this problem.

**Key words:** bilingualism, immigrant, two languages in contact, calque.

**Introduction.** Because of the deep migration processes of the last two decades in Germany, Russian and Uzbek Diasporas have formed and continue to form. According to the German Federal Office for Statistics (Statistisches Bundesamt Deutschland), about seven and a half million foreigners of different nationalities live in the country, who strive to preserve their national traits. Thus, Germany is gradually turning into a multicultural society in which different cultures and languages coexist. Among them, other traditions and customs of people who immigrated to Germany from the former Soviet Union and other countries of the post-Soviet space occupy a significant place. There are currently about three million of them. Therefore, it is not surprising that the processes of formation of a multicultural society are attracting more and more attention of linguists, sociologists, culturologists, psychologists and historians.

**Review.** At the Institute of Foreign Philology of the University of Magdeburg, as part of her Ph.D. thesis, Master Ella Handke, under the guidance of Professor Renate Belenchikova, conducted a study of the speech of migrants from the CIS living in the city of Magdeburg (Saxony Anhalt). The material of this study consists of tape recordings of natural, unprepared oral speech with a total duration of approximately 35 hours. Ella Handke interviewed 23 people; aged 25 to 65 who immigrated to Germany from the Russian Federation, Ukraine and Uzbekistan in the late 1990s. The predominant number of respondents are people with higher education and considerable professional experience. In general, this is a rather heterogeneous group, consisting of:

1. Contingent refugees of Jewish nationality (Kontingent Flüchtlinge),
2. German late settle (Spätaussiedler)
3. people from the CIS who moved to Germany for various reasons (for example, in connection with studies or marriage (Heiratsmigranten).

When studying the speech behavior of migrants in a German-speaking environment, Ella Handke, under the guidance of Professor Renate Belenchikova, took into account not only the reasons that prompted migrants to move to Germany, but also their readiness for integration, their proband language competence in German. It is important to note that in connection with emigration, the life situation of the respondents' changes radically, and their contact with a new culture begins in most cases without solid preparation.

Having changed their place of residence and having found themselves in a foreign language environment, migrants find themselves in a situation of bilingualism, contact of two languages - native and German. The German language becomes for them the language of communication with the new environment, the opportunity to realize themselves in a foreign country. At the same time, they preserve and value their native language and maintain contact with their "first" homeland, with relatives and friends, have access to their native television, literature, print and video films.

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР АКАДЕМИЯСИ  
МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ  
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ  
АХБОРОТНОМАСИ**

**№5-4 (90)  
2022 й., май**

Ўзбекча матн муҳаррири:  
Русча матн муҳаррири:  
Инглизча матн муҳаррири:  
Мусахҳих:  
Техник муҳаррир:

Рўзметов Дилшод  
Ҳасанов Шодлик  
Мадаминов Руслан, Ламерс Жон  
Ўрозбоев Абдулла  
Шомуродов Журъат

“Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси” Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги  
Хоразм вилоят бошқармасида рўйхатдан ўтган. Гувоҳнома № 13-023

Теришга берилди: 10.05.2022  
Босишга рухсат этилди: 17.05.2022.  
Қоғоз бичими: 60x84 1/8. Адади 70.  
Ҳажми 20 б.т. Буюртма: № 6-Т

Хоразм Маъмун академияси ноширлик бўлими  
220900, Хива, Марказ-1  
Тел/факс: (0 362) 226-20-28  
E-mail: [mamun-axborotnoma@academy.uz](mailto:mamun-axborotnoma@academy.uz)  
[xma\\_axborotnomasi@mail.ru](mailto:xma_axborotnomasi@mail.ru)



**(+998) 97-458-28-18**